

STRUCTURE OF COMPLEX SENTENCES IN UZBEK: A CORPUS-BASED SYNTACTIC ANALYSIS

Iroda Jurayeva

*O'zMU xorijiy til va adabiyoti
kafedrasi dotsenti, f.f.n.*

irodajuraeva@gmail.com

Shaxzoda NORMAMATOVA

*O'zMU Xorijiy til va adabiyoti
(ingliz) yo 'nalishi
2-kurs talabasi*

shahzodanormamatova0820@gmail.com

Tel: (90) 093 91 40

Abstract: In this article, the structure of complex sentences in the Uzbek language is analyzed syntactically based on corpus linguistics. The study examines structural models, types of complex sentences (compound, complex, and asyndetic), connective devices, and semantic-logical relations using a corpus compiled from texts of various stylistic layers of modern Uzbek.

Keywords: corpus linguistics, syntax, coordinated compound sentence, subordinate compound sentence

СТРУКТУРА СЛОЖНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ: СИНТАКСИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ КОРПУСА

Аннотация: В данной статье синтаксическая структура сложных предложений в узбекском языке анализируется на основе корпусной лингвистики. В исследовании рассматриваются структурные модели, типы сложных предложений (сложносочинённые, сложноподчинённые и бессоюзные), средства связи и семантико-логические отношения на основе корпуса, составленного из текстов различных стилевых пластов современного узбекского языка.

Ключевые слова: корпусная лингвистика, синтаксис, сложносочинённое предложение, сложноподчинённое предложение.

О'ZBEK TILIDA MURAKKAB GAPLAR TUZILISHI: KORPUS ASOSIDA SINTAKTIK TAHLIL

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi murakkab gaplar tuzilishi korpus lingvistikasi asosida sintaktik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy o‘zbek tiliga oid turli uslubiy qatlardagi matnlardan tuzilgan korpus asosida murakkab gaplarning struktura modellari, ularning turlari (qo‘shma, ergash va juft gaplar), bog‘lovchi vositalar va semantik-mantiqiy munosabatlar o‘rganiladi.

Kalit so’zlar: korpus lingvistikasi, sintaksis, bog‘langan qo‘shma gap, ergashgan qo‘shma gap.

Kirish. Har qanday tabiiy tilning asosiy sintaktik birliklaridan biri bu – gapdir. Gap, ayniqsa murakkab gap, til tizimidagi fikr ifodalanishining asosiy shakli bo‘lib, unda bir necha predikativ birliklar o‘zaro grammatik va mantiqiy jihatdan bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilshunosligida murakkab gaplar, ularning turlari va sintaktik xususiyatlari uzoq yillar davomida o‘rganib kelinmoqda. Ammo hozirgi kunda tilshunoslikda shakllanayotgan yangi yondashuvlar – ayniqsa korpus lingvistikasi asosida til hodisalarini tahlil qilish zaruriyati dolzarb masalaga aylanmoqda.

Korpus lingvistikasi – bu real matnlar asosida tahlil olib boradigan empirik yondashuv bo‘lib, u til birliklarining real nutqdagi ishlatilish chastotasi, kontekstdagi o‘rni, turli uslublardagi farqlanishi kabi xususiyatlarini chuqr tahlil qilish imkonini beradi. O‘zbek tilida ham bunday yondashuvlar yordamida sintaktik tuzilmalarni, xususan murakkab gaplarni real matnlarda qanday ishlatilishini o‘rganish hali yetarli darajada chuqr o‘rganilmagan.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – o‘zbek tilidagi murakkab gaplarning zamonaviy korpus lingvistikasi asosida chuqr tahlilini olib borish, ularning amaliy qo‘llanish xususiyatlarini ochib berish va mavjud grammatik bilimlarni empirik dalillar bilan boyitishdan iborat. Xususan, bog‘lovchili (qo‘shma gaplar), ergash gaplar (sababli, shartli, vaqtli, maqsadli, izohlovchi va b.), hamda bog‘lovchisiz (juft) murakkab gaplarning korpusdagi uchrash holatlari aniqlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbek tilida murakkab gaplar tuzilishi va ularning sintaktik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar an’naviy tilshunoslikda keng o‘rganilgan. Klassik grammatikalar, xususan, A.G.G‘ulomov (Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. 1965), G‘ani Abdurahmonov (Qo‘shma gap sintaksisi. 1968), va Shavkat Rahmatullayev (Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006) kabi olimlar murakkab gaplarning nazariy asoslarini ishlab chiqqan hamda ularning turlari, bog‘lovchi vositalari va sintaktik tuzilishi haqida batafsil ma’lumotlar bergenlar. Ushbu asarlarda murakkab gaplar odatda qo‘shma, ergash va juft gaplar ko‘rinishida tahlil qilinib, ularning sintaksisdagi o‘rni nazariy jihatdan yoritilgan.

So‘nggi yillarda tilshunoslikda korpus lingvistikasi metodologiyasining keng yoyilishi natijasida til birliklarini real nutqdagi ishlatilishini tahlil qilishga qaratilgan

tadqiqotlar oshmoqda. Ammo aynan murakkab gaplarning korpus asosida sintaktik tahlili O'zbek tilida nisbatan yangi yo'nalish hisoblanadi. Bu esa mavjud grammatik nazariyalarni real nutq faktlari bilan boyitish hamda yangi yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Sintaksis grammatikaning bo'limlaridan biri bo'lib, so'zlar va gaplarning o'zaro aloqasini, so'z birikmalari va gaplarni tashkil etgan bo'laklarning xususiyatlarini o'rganadi. Bu jihatdan sintaksis morfologiyadan farq qiladi. Morfologiya so'zlarning tuzilishi, yaslishi, turlanishi va tuslanishini tekshiradi, albatta, bu shakliy tekshirish ma'no asosida bo'ladi. Sintaksis esa ana shu shakllarning dinamikasini, ularning funksiyasini, ma'lum fikrni ifodalashdagi rolini o'rganadi. Sintaktik kategoriylar morfologik kategoriylar bilan teng bo'lmaydi. Masalan: Bizning kolxoz — to'q kolxoz (Folklordan). Bu jumlada morfologik jihatdan to'rt so'z, uch xil so'z turkumi mavjud (olmosh, ot va sifat, ot), sintaktik jihatdan esa faqat ikki bo'lak — ega va kesim mavjud, xolos. Demak, sintaksisda so'zlar kengroq aspektida, ularning ma'nosini va funksiyasi hisobga olingan holda tekshiriladi.[1.4].

Sintaksis so'zining ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, sintaksis (yunoncha *suntaxis* so'zidan olingan bo'lib, "yig'ishtirmoq", "birlashtirmoq" degan ma'noni anglatadi) til tiziminining yuqori darajasi bo'lgan sintaktik qatlam hamda shu qatlam haqidagi ta'limotdir.

Tilshunoslikda gaplar turli sintaktik birliklarga bo'linadi va ularning ichida murakkab gaplar o'ziga xos o'ringa ega. Murakkab gap — bu bir nechta mustaqil yoki bog'langan gaplardan tashkil topgan, lekin bir butun fikrni ifodalovchi sintaktik birlikdir. Ularning asosiy xususiyati shundaki, murakkab gaplar tarkibida bir nechta predikativ asoslari mavjud bo'lib, ular turli grammatik va semantik munosabatlar orqali bir-biriga bog'langan bo'ladi. Bog'lovchi va bog'lovchi vazifasidagi vositalar yordamida tuzilib, bir butunlikni tashkil etgan, mazmunan ma'lum bir murakkab fikrni ifodalovchi gaplar birikmasiga qo'shma gap deyiladi.

Tarkibidagi sodda gaplarning o'zaro semantik, grammatika-insholik va intonatsion aloqalari, shuningdek, bog'lanish texnikalariga ko'ra, qo'shma gaplar **uch guruhga** bo'linadi [2.11].

- 1. Bog'langan qo'shma gaplar.**
- 2. Ergash gapli qo'shma gaplar.**
- 3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar.**

Yeng, yoyiq uyushiq kesimli sodda gaplar bilan qo'shma gaplar bir-biriga strukturaviy jihatdan yaqin turadi: Masalan, "*O'shandan buyon oftob ham bu yurtlarni chetlab o'tarmish, shamol yaqiniga bormasmish. U yurt ham, bu yurt ham zimistonga aylanib qolganmish*" [3.76]. Sodda gaplar bilan qo'shma gaplar orasidagi o'xshashlik ayniqsa ergash gapli qo'shma gaplar sohasida aniq ko'rindi. Ma'lumki, qo'shma gap bog'lovchi va bog'lovchi vazifasidagi vositalar yordamida tuzilib, bir butunlikni

tashkil etadigan, mazmunan ma'lum bir murakkab fikrni ifodalovchi gaplar birikmasiga aytildi. Qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar mustaqil sodda gaplardan o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar umumiylarini ifodalash uchun xizmat qiladi va o'ziga xos intonatsiyasi bilan ajralib turadi. Biroq, bu shuni anglatmaydi-ki, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar umuman sodda gap bo'lishdan chiqib ketadi. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar ham sodda gapning xususiyatlarini o'zida saqlab qoladi. Qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar sodda gapning asosiy belgilarini o'zida ifodalasa, u qo'shma gapning alohida bir komponenti hisoblanadi; agar sodda gapning asosiy belgilarini o'zida ifodalamasa, u oddiy so'z birikmasi bo'lib qoladi va bunday konstruktsiyali gap sodda gap sifatida qaraladi.

Bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gaplarning tarkibida o'z egasi va mustaqil forma bilan kesimi bo'lgan sodda gaplar mavjud bo'lsa, ularning qo'shma gap ekanligida hech qanday shubha yo'q. *Daraxtlar pakana, mevasi mo'l-ko'l va yirik, lekin hali deyarli hammasi ko'm-ko'k.* (Oybek).

Bog'langan qo'shma gaplar sintaktik tuzilma jihatidan mustaqil gaplardan tashkil topadi va ular o'zaro bog'lovchi so'zlar yordamida bir butun fikrni ifodalaydi. Bog'lovchi vositalar orqali gaplar orasidagi semantik-mantiqiy munosabatlar yaqqol ifodalanadi:

va, ham — qo'shilish, qo'shimchalik munosabati

lekin, ammo, biroq — qarama-qarshilik

yoki, yo — tanlov

shuning uchun, demak — sabab-natija

Uslubiy jihatdan, bu turdagi gaplar rasmiy, publitsistik va ilmiy matnlarda, shuningdek yozma nutqda keng qo'llaniladi. Masalan, "*U bir vaqtlar o'ziga alam o'tkazgan ba'zi Hirot shoirlarini har qancha yomon ko'rsa ham, lekin yoniga askar olib, birovlarning uyini titishni, mol-mulkini musodara qilishni o'ziga munosib ko'rmas edi*". [4.352].

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda mantiqiy bog'lanish gaplar o'rtasidagi intonatsion urg'u va kontekst orqali ifodalanadi. Bu turdagи gaplarda gaplar orasidagi munosabatlar (sabab-natija, ketma-ketlik, izohlovchilik, qarama-qarshilik) aniq bog'lovchisiz ifodalanadi, bu esa tilning semantik zichligini oshiradi.

Ergash gaplar asosiy gapning tarkibiy bo'lagi hisoblanadi va unga sintaktik jihatdan bo'ysunadi. Ular asosiy gapning ma'nosini to'ldiradi, aniqlaydi yoki sabablaydi. Ergash gaplar o'z funksiyasiga ko'ra bir necha guruhga bo'linadi:

Sabab ergash gaplar: U darsga kelmadi, chunki u kasal edi.

Shart ergash gaplar: Agar u kelsa, biz boshlaymiz.

Maqsad ergash gaplar: Men sizni ko'rish uchun keldim.

Tadqiqot metodologiyasi. Tilshunoslik sohasida so‘nggi o‘n yilliklarda yuz bergen eng muhim yutuqlardan biri bu — korpus lingvistikasi metodologiyasining rivojlanishi va keng qo‘llanilishi hisoblanadi. Korpus lingvistikasi — bu tilni o‘rganishda katta hajmdagi real matn yoki nutq namunalarini (korpus) yig‘ish, ularni elektron shaklda qayd etish va maxsus kompyuter dasturlari yordamida tahlil qilish jarayonidir. Bu metodologiya an’anaviy tilshunoslik yondashuvlariga nisbatan yanada empirik, ob’ektiv va statistik jihatdan asoslangan yondashuvlarni taqdim etib kelmoqda. Ayniqsa, sintaktik tadqiqotlarda korpus lingvistikasi til birliklarining real nutqdagi ishlatilishini aniqlash, ularning kontekstga bog‘liq o‘zgarishlarini o‘rganish va yangi nazariy kashfiyotlar qilish uchun keng imkoniyatlар yaratadi.

An’anaviy sintaksis tadqiqotlarida ko‘pincha nazariy asoslar va odatiy grammatik tasniflar asosida til birliklari tahlil qilinadi. Biroq bunday yondashuvlar, odatda, til birliklarining real nutqdagi ishlatilish intensivligi, stilistik farqlari yoki kontekstga bog‘liq o‘zgarishlarini yetarlicha aks ettirmaydi. Shu sababli ko‘plab mualliflar tilning haqiqiy ishlatilishini kuzatish va o‘rganishda korpus lingvistikasi metodlarini qo‘llash zarurligini ta’kidlaydilar. Korpus lingvistikasi yordamida sintaktik birliklar, xususan murakkab gaplar kabi strukturalar, real va turli janrdagi matnlarda qanday ishlatilishi haqida aniq va ishonchli ma’lumot olish mumkin.

Murakkab gaplarning korpus asosida sintaktik tahlili tilshunoslikda nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki amaliy tilshunoslik (masalan, til o‘rgatish, tilni avtomatik qayta ishlash, til korpuslari yaratishda) uchun ham katta ahamiyatga ega.

Xulosa. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilida murakkab gaplarning eng ko‘p ishlatiladigan turi — qo‘shma gaplar bo‘lib, ular bog‘lovchi so‘zlar yordamida bir-biriga bog‘lanadi. Ergash gaplar esa sabab, shart, vaqt kabi semantik-mantiqiy munosabatlar bilan ifodalanib, tilning yanada boy va murakkab sintaktik strukturasini tashkil qiladi.

Korpus lingvistikasi metodologiyasi murakkab gaplarni real nutq kontekstida o‘rganish imkonini berib, nazariy tilshunoslikda mavjud bo‘lgan gipotezalarni empirik asosda tasdiqlashga yordam berdi. Shuningdek, korpus tahlili turli janr va uslubdagi matnlardagi murakkab gaplarning farqliliklarini aniqlashga xizmat qiladi. Kelgusida korpuslar hajmini oshirish va texnologiyalarni takomillashtirish orqali o‘zbek tilining sintaksisini yanada chuqurroq o‘rganish imkoniyatlari kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. O’zbekiston SSR “Fan” nashriyoti. T., 1966. 4 b.
2. G‘ani Abdurahmonov. Qo‘shma gap sintaksisi. O’zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti. T., 1968. 11 b
3. O’tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. “Global books” nashriyoti. T., 2021. 76 b
4. Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. “Adabiyot uchqunlari”. T., 2018. 352 b